

## Ozodbek Nazarbekov

### "Pora-pora"

Visit "[Pora-pora](#)" on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com)

Izlab gul orazingni, arz ayladim bahora,  
Ko'rsam deya yuzingni ra'no gulida zora.  
Vasling xumori bo'ldim, vasling umidin bog'lab,  
Hajringda yondi jismim, ham bag'rim pora-pora.

Pora-pora! Boylandim senga pora!  
Pora-pora! Ham bag'rim senga pora!

Mushtoq bo'lganimda o'tli qarashlaringga  
Ko'rsatdi ko'z qaroshi oy shu'lada setora.  
Tunlarga qiyos etdim kokillaringni, dilbar,  
Tunlar yorishdi, ammo sochlar qorayu qora.

Pora-pora! Boylandim senga pora!  
Pora-pora! Qon bag'rim pora-pora!

Diydor ko'rishganimda ishqim bayon etolmay,  
Termulganimcha qoldim sen yor isi xumora.  
Oromu ixtiyorim olding, sanam, shu onda,  
Ishqingda yondi Yax'yo, yo'q endi boshqa chora.

Pora-pora! Boylandim senga pora!  
Pora-pora! Ham bag'rim pora-pora!

Izlab gul orazingni, arz ayladim bahora,  
Ko'rsam deya yuzingni ra'no gulida zora.  
Vasling xumori bo'ldim, vasling umidin bog'lab,  
Hajringda yondi jismim, ham bag'rim pora-pora.

Pora-pora! Ham bag'rim pora-pora!  
Pora-pora! Boylandim senga pora!  
Pora-pora! Yo'q endi o'zga chora!  
Pora-pora! Boylandim senga bora!

